



**Iroda To'laganova Surxon vohasiga safari unda katta taassurot qoldirayotganini ta'kidlab, surxondaryolik yoshlarning bilim olishi, zamonaviy kasb-hunarlarini egallashi, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanib, o'z iqtidor va salohiyatini namoyon qilishi uchun yaratilayotgan imkoniyatlarni yuqori baholadi.**

Bu haqida mashhur sportchi, tennis malikasi, O'zbekiston tennis federatsiyasi bosh kotibi va Osiyo tennis federatsiyasi vitse-prezidenti Iroda To'laganovaning viloyat hokimi To'ra Bobolov bilan uchrashuvida so'z bordi. Samimiy suhbat asnosida viloyatda mavjud 15 ta tennis kortining bugungi ahvoli hamda ularda mashg'ul bo'lgan vohalik yoshlar-

## Birinchilik oldidan...

Joriy yilning 25-28 fevral kunlari

Farg'ona shahrida kikkboxing bo'yicha O'zbekiston birinchiligi bo'lib o'tadi. Unda viloyat sportchilari ham ishtirok etishadi. Birinchilik oldidan viloyatda kikkboxingni rivojlantirish maqsadida seminar tashkillashtirildi.

Viloyat hokimligi tomonidan tasdiqlangan manzilli rejaga asosan yoshlar bilan diniy-ma'rifiy va madaniy tadbirlarni takomillashtirish borasida "Din niqobidagi ekstremizm - yoshlarning kelajagi uchun tahdid" mavzusida seminar-uchrashuv o'tkazildi.

## Tahdidga qarshi tafakkur bilan...

Uchrashuvlar Termiz tumanidagi 1-sonli va 5-sonli umumta'lim maktablarida yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida hamda 13-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabida imom-xatib, noiblar va mahalla vakillari ishtirokida o'tkazildi.

Imom Termiziy nomidagi o'rta maxsus islom ta'lim muassasasi direktorining o'rinbosari A.Qosimov ma'ruza qildi va taqdimotlar orqali yoshlarga din niqobi ostidagi ekstremizm va uning tahdidlari, davlat va din munosabatlari, hozirgi kunda davlatimiz tomonidan diniy bag'rikenglik borasida amalga oshirilayotgan ishlar xususida batafsil tushunchalar berildi.

## Termizda yangi tennis korti quriladi

ning ishtiroqi alohida ta'kidlandi. Yoshlar o'rtasida sportni, xususan, tennisni keng ommalashtirishga qaratilayotgan alohida e'tibor navqiron avlodni jismonan sog'lom, ma'nan yetuk insonlar etib tarbiyalashga xizmat qilayotganligi e'tirof etildi. Diana Ruslanova, Dilmurod Choriyev, Umidjon Mamasharipov, Shohruh Toshpo'latov, Jasur To'rayev, Sunnatulla Xolmurodov,

Shohruh Bahromov, Mamanazar Rahimjonov, Ulug'bek Usmonov, Marjona Ergasheva, Shahnoza Hayitmurodova, Aziza Rahmatullayeva, Temurbek Ergashev singari yosh surxondaryolik tennischilar Respublika miqyosida o'tkazib kelinayotgan musobaqalarda g'olib va sovrindorlar safidan joy olib kelishmoqda. Shuningdek, Sitora Normurodova Parij-2024 Olimpiya o'yinlariga tayyorgarlik ko'rish uchun ayni vaqtda tennis bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi safida mashg'ulotlarni o'tamoqda.

Muloqot chog'ida viloyatda ushbu sport turini yanada rivojlantirish maqsadida yangi tennis korti majmuasini bunyod etish, bu yerda yoshlarning tajribali mutaxassislar murabbiylikida



mahoratini oshirib borishlari uchun zarur sharoitlarni yaratishga kelishib olindi.

Termiz shahrida jahon talablariga to'la javob beradigan zamonaviy tennis korti

majmuasini qurish uchun yer ajratish, loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va qurilish ishlarini boshlash to'g'risida mutasaddilarga ko'rsatma berildi.

## Eksportbop brend



"Tuproqqo'rg'on" mahallasi shahar markazida bo'lsa-da, chekka hudud yangilig' taassurot uyg'otadi. Obodlikdan, orastalikdan uzoq hududga aylanib, odamning obodlikka oid qarashlarini yo'qqa chiqaradi.

## Ko'ksiga shamol tegib...

Biqiq va xarobasifat mahallaning bugun qurilishlar avjida hududi obodlikka yuz tutdi — ko'ksiga shamol tegdi... Ma'lumki, xalqimiz ma'naviyatida, qadriyatlarida boshqa xalqlar ibrat olsa arziydigan ko'pgina xayrli tadbirlar mujassam. Bahor kirib kelishi bilan mahallalarda ommaviy ravishda daraxtlarni butash va oqlash, ko'chalar hamda yo'laklarni tartibga keltirish kabi ajdodmeros an'analarimiz bo'y ko'rsata boshlaydi.



Termiz shahridagi "Tuproqqo'rg'on" MFYda ham ana shu an'analarda davomi sifatida shahar obodonlashtirish boshqarmasi xodimlari, ushbu mahallada istiqomat



qiluvchi fuqarolar hamda kommunal soha xodimlari ishtirokida keng miqyosida obodonlashtirish ishlari olib borildi. Shu o'rinda shahrimiz fuqarolarini birdamlikka, ahillikka va mehr-oqibatga undagan holda o'zlari

istiqomat qilayotgan xonadon va hovlilarni, ko'cha va guzarlarni, tartibga keltirib, tozalik va orastalikni bosh masala qilib olishini so'rab, avvalgi holatiga qaytmasligidan umid qilib qolamiz.

O'z muxbirimiz

"GIOVANE SINO" brendi ostidagi poyabzallar Tojikiston davlatiga eksport qilinmoqda. Tadbirkor Habibullo Murodov Denov tumanida poyabzal ishlab chiqarishni yo'lga qo'yib, sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish bilan birga yangi ish o'rni ham yaratgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik viloyatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirilyapti. Ayniqsa, yangi ish o'rinlari yaratish va fuqarolarning ish bilan bandligini ta'minlashga e'tibor qaratilgan. "GIOVANE SINO" brendi ostidagi mahsulotlarning kelgusida eksportini kengaytirish ko'zda tutilgan.

Ro‘yxatni shakllantirish uchun viloyatimizda 721 ta mahallada ham mutasaddi tashkilotlar xodimlari tomonidan uy-ma-uy kirib, anketa-so‘rovnomalari to‘ldirildi. Ayni paytda vohadagi 28 928 nafar ayol “Ayollar daftari” elektron bazasidan joy olgan.

— “Ayollar daftari”ga kirgan xotin-qiz bilan tizimli ishlash qo‘l keladigan “yo‘l xaritalari”miz bor, — deydi viloyat Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i Ilhom To‘xtayev. — Anketa-so‘rovnomalardan kelib chiqib, ayollarning oilaviy sharoiti o‘rganilib, ularga 9 toifa asosida yordam ko‘rsatiladi. Xotin-qizlar bilan manzilli ishlash maqsadida bir qator vazifalar rejalashtirilgan. Joriy yil yakuniga qadar, ishlar istagidagi 5 980 nafar xotin-qizning bandligi ta‘minlanadi. 3 186 nafar xotin-qiz kasbhunarga va hayotga ruhlantirish (motivatsiya berish) bo‘yicha o‘qitiladi.

**Ayollari har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi rolini oshirib, bandligini ta‘minlash hamda ijtimoiy ahvolini yaxshilash, hayotda o‘z o‘rnini topishi va turmushidan mamnun holda yashashiga imkon yaratish maqsadida “Ayollar daftari” tashkil etilgandi.**

# XOTIN-QIZLAR bilan ishlashda yangicha yondashuv

haftaning shanba kunlari viloyatimizda faoliyat yuritayotgan sudyalalar bilan hamkorlikda joylarda uchrashuvlar tashkil etilayapti. Unda asosan, ayollarning huquqiy savodxonligini oshirish, qonun hujjatlari bilan tanishtirib, tegishli tashkilotlarga murojaat qilish yo‘l-yo‘riqlari bo‘yicha ma‘lumotlar berib borilayapti. Qolaversa, psixologik yordam ko‘rsatish ham nazarda tutilgan. Shuningdek, 2021-yilda xotin-qizlarga tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish uchun Xotin-qizlarni va oilani qo‘llab-quvvatlash maqsadli jamg‘armasi hisobidan 10 milliard so‘m miqdorida mablag‘ ajratiladi.

Shu bilan birga, jamg‘arma hisobidan og‘ir turmush sharoitida yashayotgan uy-joyga muhtoj 118 nafar ayolga uy olishlari uchun boshlang‘ich badal pullari to‘lab beriladi, 420 nafar xotin-qizni nogironlik aravachasi va reabilitatsiya vositalari bilan ta‘minlash ham ko‘zda tutilgan.

“Ayollar daftari”ga kiritilgan ayollarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida shahar va tumanlarda “Ayollar jamg‘armalari” tashkil etilib, 5 milliard so‘m mablag‘ shakllantirildi.

O‘tgan yilning dekabrda eksperiment tarzida Termiz shahrining 37 ta va Oltinsoy tumanining 54 ta mahallasida “Ayollar daftari”ga kiritilganlar bandligini ta‘minlashga tizimli yordam ko‘rsatish uchun “mehnat inspektori yordamchisi” lavozimi joriy etilib, ishlar istagini bildirgan xotin-qizlar orasidan mahallani yaxshi biladigan, AKT savodxonligi bo‘lgan xotin-qizlar suhbat asosida tanlab olindi.

— Bu lavozimda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar, asosan, huddudagi ro‘yxatga olingan ayollar va yoshlar bilan ishlashayapti, — deydi Oltinsoy tuman aholi bandligiga ko‘maklashish markazi jamoat ishlarini muvofiqlashtirish sho‘ba mudiri Avazbek Bobanazarov. — Xonadonlarda bo‘lib, monitoring olib borayapti. Ishlar istagidagi fuqarolarni ishga joylashtirish masalalarini, ularning muammo va murojaatlarini o‘rganishayapti.

Shuningdek, ayni paytda “Xalq banki” tizimida xotin-qizlar bo‘yicha o‘rinbosar lavozimi joriy etildi. “Ayollar maslahatxonasi bo‘limi”, “Qizlar salomatligi markazi”, “Perenatal skrining xonasi” tuzilmalari xizmati oilaviy poliklinika va oilaviy shifon

korlik punktlarida ham tashkil etildi. Shuningdek, oilaviy ajrimlarning oldini olish bo‘yicha 15 ta tuman (shahar)da “Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlari” ham faoliyat boshladi.

Joriy yilda zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlari bilan birgalikda ajrim yoqasiga kelib qolgan 623 ta oila bilan manzilli ishlanadi. Bundan tashqari, viloyatdagi har bir mahalla fuqarolar yig‘inida 10-15 kishidan iborat “Ayollar maslahat kengashlari” shakllantirildi. Ushbu kengashlar uchun 614 ta maktab, 32 ta poliklinika, 13 ta kolleji, 9 ta kasb-hunar maktabi, 9 ta madaniyat markazi, 6 ta musiqa va san‘at maktabi va 4 ta oliy o‘quv yurti binolaridan xonalari ajratilib, faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

— Tumanimizda “Ayollar daftari”ga kiritilganlar soni 1178 nafarni tashkil etadi, — deydi Uzun tuman hokimligi mutaxassisi Zamira Mirzaeva. — Ayni paytda tumandagi kredit olish istagidagi 148 nafar ayolning xonadonlariga AT “Xalq banki”dan birlashtirilgan vakillar bilan birgalikda borib, ularning kredit olish

bilan bog‘liq murojaatlari monitoring qilinayapti. Jamiyatdagi xotin-qizlar bilan ishlash tizimining bu tarzda yo‘lga qo‘yilishi “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarning turmush tarzi va jamiyatda tutgan o‘rnini mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilishiga ishonaman.

Ayollarning muammolari bartaraf etilishiga, ularning oilasida ham, farzandlar tarbiyasida ham yaxshi tomonga o‘zgarish bo‘lishi turgan gap. Axir, bola tarbiyasi, asosan, onadan, atrof-muhitdan oladi. O‘z muammolari bilan o‘ralashib qolgan, ijtimoiy hayotda qiynalib kun kechirayotgan onalar kelajak davomchilariga qanday umid va ko‘mak bera oladi? Ona beradigan motivatsiya va tarbiya bolaning jamiyatda tutgan o‘rnini belgilashda bevosita poydevor vazifasini o‘tlaydi.

Viloyatimizdagi ijtimoiy ko‘mak muhtoj xotin-qizlar bilan ishlashning yangicha tizimi ayni qizg‘in jarayon paytida turibdi. Yil yakuniga qadar rejada ko‘rsatilgan, belgilab olingan maqsad va vazifalar samara berishiga ishonib, bu mavzuga, albat, qaytamiz. Jarayonni birgalikda kuzatamiz...

Adolat MO‘MINOVA

# Yillik soliq jam bo‘ldi

“Dunyoda hech narsa soliq va o‘lim kabi muqarrar emas”, degan edi Benjamin Franklin.

Doimiy tartibda soliq to‘lashga o‘rganib qolganmiz. Biz majburiyatidan esa bo‘yin tovlamay olmaymiz. Biz to‘layotgan soliqlarimiz jam bo‘lib, qaysi bir soha yoinki hududni rivojlantirishga zamin yaratadi. Endi tasavvur qilib ko‘ring. Oz-ozdan yig‘ilib boradigan soliqlarimiz yil davomida qanday raqamlarda aks etadi? Bu ko‘pchilikni qiziqitirishi tabiiy.

O‘tgan bir yil davomida amalga oshirilgan ishlar, erishilgan yutuqlar sarhisob qilishga undaydi. Viloyatimiz soliq to‘lovchilari ham davlat byudjetiga munosib hissa qo‘shdilar. O‘tgan yili viloyatimizda byudjetga 1 440,3 milliard so‘m mablag‘ tushirish prognozi belgilangan edi. Soliq to‘lovchilar tomonidan yil davomida 1 621,5 milliard so‘m soliq to‘lovlari to‘lanib, davlat byudjetiga 181,2 milliard so‘m qo‘shimcha mablag‘ tushirildi. Sohalar kesimida oladigan bo‘lsak, byudjetga yo‘naltirilgan mablag‘larning

875,7 milliard so‘mi, ya‘ni 54 foizi yuridik shaxslar, 731,5 milliard so‘mi, ya‘ni 45 foizi jismoniy shaxslar, 14,2 milliard so‘mi, ya‘ni 1 foizi esa yakka tartibdagi tadbirkorlar hissasiga to‘g‘ri keldi.

Soliq turlari bo‘yicha tahlil qilsak, tushumning 613,7 milliard so‘m — 38 foizini jismoniy shaxslar daromad solig‘i, 376,2 milliard so‘m — 23 foizini qo‘shilgan qiymat solig‘i, 111,7 milliard so‘m — 7 foizini aksiz solig‘i, 65,6 milliard so‘m — 4 foizini aylanma soliq va qolgan 454,3 milliard so‘m, ya‘ni 28 foizini esa boshqa soliqlar tashkil etdi.

**Viloyat DSB Matbuot xizmati**

**Til bilmak saodardir**

Ma‘rifatga baxshida umrlar hech qachon o‘lmaydi. Tildan tilga, dildan dilga ko‘chadi.

# BIRINCHI O‘QITUVCHI

Avlodlar xotirasida yashayveradi. Ana shunday munosib hayot yo‘li bilan Beknazar Abdunazarov ham bugun juda katta ibrat maktabini yaratib ketdi, deyish mumkin. Beknazar ota 1921-yilda dunyoga kelgan. Otasi Abdunazar bobo katta arabshunos, o‘z davrining ma‘rifatparvari bo‘lgan. Angor tumanidagi Ozod Buxoro qishlog‘ida yashagan Beknazar ota 1927-yili shu qishloqning “Bulganin” nomli maktabiga o‘qishga borib, 1934-yil 7 yillik maktabni a‘lo baholar bilan tugatgan. Ilimi va zukkoligi sabab “Bulganin”da o‘qituvchi qilib olib qolinadi. 1940-yilgacha shu maktabda yoshlarga ta‘lim-tarbiya beradi. Qishloq ahlini ilmga chorladi. O‘sha yillarda avj olgan qahatchilik, ilmsizlik, xalq o‘zligini izlayotgan bir davrda ota jon-jahdi bilan xalqni ilmsizlik botqog‘idan chiqarishga intildi. O‘sha yillarning zahmini tortgan ota va oilasi barcha ma‘rifatparvar, ziyolilar qatori qishloqdan quviladi. Ko‘ch-ko‘roni bilan necha kuntunni och-nahor, uyqusizlikda o‘tkazib, Tojikistonning Jiliko‘l tumanidagi Voroshilov nomli kolxoziga yetib borishadi. Beknazar ota jonbozlik bilan oilasini boshqardi. Teran fikri, salohiyati sabab u yerda ham zunda selsovetga ishgah olindi. 6 oydan so‘ng, selsovet raisi etib saylandi. II jahon urushi boshlangani sabab, “Voroshilov” aholisi ham urushga jalb etildi. Qishloq ham, kolxoz raisligi ham otaga topshirildi. Endigina 20 yoshga kirgan Beknazar ota qishloq ahlini katta matonat bilan boshqardi. Insoniyat boshiga yog‘ilayotgan qirg‘inbarot urushning zaharli nafasi xalqni ezishga qaramasdan ota elni dadil qadam bosishga undadi. O‘zi uchun ham urushning suronlari kelayotgan vaqt edi. 1942-yilning bahorida ota urushga chaqirildi. Vatani uchun, el tinchligi uchun kurashga kirdi. Yodi-xayoli esa hamon o‘z yurti O‘zbekistonga, qishloqqa qaytish edi.

istak bilan qaytadan boshlagandek edi. Yer olishi bilan ot-uloq topib oilasini “Voroshilov”-dan “Ozod Buxoro”ga ko‘chirib keldi. Yana “Bulganin” maktabida o‘qituvchilikni boshladi.

1943-yilning kuzida “Bulganin”ga direktor etib tayinlandi. 5 yil davomida qishloqda bilimdon, o‘qishga intiluvchanlar ko‘paydi. Maktabda o‘qituvchilar kamsonli bo‘lgani uchun Rossiyadan bilimli kadrlarni olib keldi. Ko‘pchilik ruslar keyinchalik bu qishloqqa muqim yashab qolishdi. Ota 1948-yilda 6 oylik O‘qituvchilarni tayyorlash kursiga Termiz shahriga jo‘natildi. 1961-yili Qarshi davlat universitetining tarix fakultetiga o‘qishga kirib, 1966-yilda oliy o‘quv yurtini muvaffaqiyatli tamomladi. Mehnatlari samarasi o‘laroq, 1978-yilda “Xalq maorifi a‘lochisi” unvoni bilan taqdirlandilar. Umringing oxirigacha hayotini bilimga, ta‘lim berishga bag‘ishladi. Shu boisdir, qishloq ahli haligacha Beknazar otani qishloqdan chiqqan birinchi o‘qituvchi sifatida alqashadi.

Asolat UZOQOVA, Sherobod tumani

Sherobod tumani, “Zarabog” mahallasida yashovchi fuqaro Sh.B. o‘zi va boshqalar nomidan “Sherobod-suvpudrat” MCHJ tomonidan oylik ish haqlari to‘lab berilmayotgani yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga murojaat qildi. O‘rganishlar davomida 77 nafar xodimning 2020-yil 1-dekabr holatiga 271 602 708 so‘mlik ish haqidan qarzdorligi aniqlangan, ushbu qarzdorlik viloyat prokuraturasining yordami bilan

**Murojaat yechim topdi**

Qaysiki tashkilot, u xoh davlat, xoh xususiy tashkiloti bo‘lsin, unda faoliyat yuritayotgan xodim o‘z mehnatiga yarasha ish haqi olishga haqli. Bu konstitutsion normalarda va mehnat kodeksidagi tegishli bandlarda ham o‘z ifodasini topgan. Ish haqi, maosh kishiga eng yaxshi rag‘batdir. Ammo, ish beruvchi qandaydir sabablar bilan xodimini ana shu rag‘batdan cheklashi mumkin. Shu o‘rinda ish beruvchi va xodim o‘rtasida tuzilgan mehnat shartnomasida buzilishlar kuzatiladi.

undirib berildi. Shuningdek, viloyat “Agroservis MTP” MCHJ va uning tizimida faoliyat yuritayotgan tumanlardagi MCHJlarida ishlovchi 643 nafar ishchi-xodimning 957 million 331 ming so‘mlik ish haqi o‘z egalariqa qaytarilishida amaliy yordam ko‘rsatildi. Ayni shunday nazorat tadbirlari davom etmoqda.

**Farhod QURBONOV**, Viloyat prokuraturasi bo‘lim boshlig‘i o‘rinbosari

Shunga ko‘ra, 2020-yilning dekabr oyida bo‘linmaga hujjat topshirgan 43 nafar fuqarodan davlat tilini bilishga qo‘yilgan minimal talablari asosida sinov imtihonlari (tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozish va test sinovlari) olindi va belgilangan ball ko‘rsatkichlarini to‘plagan shaxslarga malaka sertifikatlari topshirildi. Ushbu munosabat bilan Termiz davlat universitetida joylashgan davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish hududiy bo‘linmasida tadbir tashkil etildi.



Unda viloyat hokimining ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta‘minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi Olimjon Sevarov, viloyat IIV migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish boshqarmasi katta inspektori, katta leytenant Sherzod Alyarov, Termiz shahar ichki ishlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi boshqarmasi migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘limi boshlig‘i, kapitan Ilhom Abrayevlar ishtirok etishdi va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga namunadagi davlat tilini bilish to‘g‘risidagi sertifikatlarni topshirishdi.

**Shokir SATTOROV**, davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish viloyat hududiy bo‘linmasi rahbari

# So‘z Statistika

Bugun tadbirkorlik rivoji uchun muhim e‘tibor qaratilayotgani sir emas.

Aynan shuning uchun ham yangi korxonalar va tashkilotlar soni yil sayin ko‘paymoqda.

O‘tgan yili viloyatimizda faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 25 367 tani tashkil etib, respublikadagi ulushi 5,3 foizga yetdi. Fermer va dehqon xo‘jaliklari bundan mustasno. 7 666 ta yangi korxonalar va tashkilotlar davlat ro‘yxatidan o‘tgan bo‘lib, ushbu korxonalarda 20 258 ta yangi ish o‘rni yaratildi. Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning 7 542 tasi, ya‘ni 98,4 foizi kichik biznes subyektlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sohalar kesimida qaralganda, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 2 450 ta, savdoda 2 166 ta va sanoatda 1 788 ta yangi tadbirkorlik subyekti tashkil etilgan.

Viloyatning o‘tgan bir yil ichida yalpi hududiy mahsulotda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining ulushi 50,4 foizi tashkil etdi. Ushbu sohada faoliyat yuritayotgan 3 445 ta qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar va tashkilotlar mavjud bo‘lib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2 006 taga yoki 239,4 foizga

ko‘payganligini ko‘rishimiz mumkin. Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonida qayd etilgan ishlar chiqarishni diversifikatsiya qilish, yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, qulay agrobiznes muhitini va yuqori qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash, sohaga bozor mexanizmlarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish hamda kadrlar salohiyatini oshirishga qaratilganligi bois ushbu sohada xususiy sektorning ishtiroki sezilarli darajada oshgan. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 425 tani tashkil etadi. Bu esa bir yilda korxonalar soni 75 taga ko‘payganini bildiradi.

Ushbu korxonalar, asosan, Afg‘oniston Islom Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog‘iston va Hindiston Respublikalari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Termiz shahrida. O‘tgan yilda 40 ta xorijiy kapital ishtirokidagi yangi korxonalar va tashkilotlar tashkil etilgan.

**O. RAHMONOV**, viloyat statistika boshqarmasi statistik registrarini yuritish bo‘limi boshlig‘i



Zahiriddin Muhammad Bobur yuksak salohiyat egasi ekanligi bilan ham dunyo yozuvchi-shoirilarini ruhantira olgan siymo. Bobur haqidagi birinchi roman muallifi amerikalik olim va yozuvchi Gerald Lemb asarini “Bobur arslon” deb nomlashi ham Bobur shaxsiga bo‘lgan e‘tirof edi.

## Himmati oliy BOBUR

Bobur mamlakatlilik siyosatining negizi hisoblangan. Boburning askar ko‘nglilo olishidan bosh maqsadi kimning qayerdanligi, millati, kasbiga qarab, emas, balki unga shohga sadoqati, mardligi, fidoyiligi vafodorigi, davlat himoyasiga qo‘shgan hissasi bilan belgilangan. Boburning yuksak insoniy fazilatlarini uning davlatliligidagina nisbatan adolat bilan hukm chiqarishga bog‘liq.

Bobur mamlakatlilik siyosatining negizi hisoblangan. Boburning askar ko‘nglilo olishidan bosh maqsadi kimning qayerdanligi, millati, kasbiga qarab, emas, balki unga shohga sadoqati, mardligi, fidoyiligi vafodorigi, davlat himoyasiga qo‘shgan hissasi bilan belgilangan. Boburning yuksak insoniy fazilatlarini uning davlatliligidagina nisbatan adolat bilan hukm chiqarishga bog‘liq.

**Farangiz OBIDOVA**

Ingliz sharqshunosi Eduard Golden esa: “Boburda buyuk qalb egasiga xos bo‘lgan barcha olijanob fazilatlar mavjud edi, uning asarlari yuksak darajada mukammallik kasb etadi”, deb yozadi. Demakki, Bobur himmati alohida mavzu. Bobur Mirzoning fikricha, podshohlarning asosiy shartlaridan biri adolatning yetuk pallasi himmat bilan belgilanadi. Afg‘onistonning Nangarxov viloyatida Mirzo Ulug‘ qurdirgan bog‘ni Bobur bir kampirdan o‘z narxidan o‘n hissa ko‘p pul berib rozi qilganida, Hindistonni zabt etganida, qashshoqlikda qolgan ahli musofirlarga turli haddiyat berganida, janjallarda tushgan o‘jalarini adolat bilan taqsimlashda bu himmat yanada yaqqol ko‘rinadi. Lekin, Bobur himmatni faqat iqtisodiy jihatidagina deb bilmaydi balki do‘stga ardoq va hurmatning ham qadriga yetadi.

erishdi. Biroq, u qayerda bo‘lmasin, temuriylar saltanatidagi urf-odat tartib va intizomni kanda qilmadi. Boburning fikricha, har qanday ma‘muriy adolat bilan hukm chiqarishga bog‘liq. Faqat adolati tuzumgina haqiqiy ma‘muriylikni vujudga keltiradi. Oo‘lga kiritilgan o‘lja — boylik, yer-suvlarni bek-u a‘yonlar, shahzodalarga insof va adolat jihatidan taqsimlash ham yurt ma‘muriylikining asosini tashkil etadi. Masalan: Bobur Hindiston safari davomida Kalot degan joyga yetganida uning askarlari yo‘lda uchragan Hindiston savdogarlarini talashni ixtiyor etadilar. Lekin, Bobur bu ishga qarshi chiqadi va adolatdan emasligini bildiradi. Bobur siyosatida andisha afv etish, bechoraga ko‘mak kayfiyati hamisha us-tun bo‘lgan. Adashganni kechirish musulmonchilik, shariat ahkomiga bo‘ysunish

Tarixiy dalillar shundan dalolat beradiki, Bobur qayta bunyod etgan temuriylar saltanati, rasm-odati, qonun-qoidasi, mustahkam qo‘shinini asrash va uni ta‘minlash borasidagi tartibot bilan nafaqat o‘zining hayotlik davrida, balki keyin ham o‘zini oqlab keldi. Boburning Afg‘oniston va Hindistonda ona yurtida qurilmagan imorat va bog‘lari, sug‘orish inshootlarini bunyod etishi “viloyat saqlash” siyosatini anglatadi. U yurt saqlashni, avvalo, yerga mehrdan boshladi. Qo‘lga kiritgan joylari obod etdi, yangi-danyangi daraxt, gul nihol-lari, poliz ekinlari o‘stirishni tajriba etdi. Bu sohada yutuqqa



БОБУР  
БОБЫРНОМА

## DIQQAT, TANLOV

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-fevraldagi “Sholi yetishtirishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4973-sonli qarorida belgilangan topshiriqlar ijrosini o‘z muddatida ta‘minlash maqsadida, joriy yilda viloyatning Muzrabot tumanida 300 gektar maydonda urug‘chilik xo‘jaliklarini tashkil etish maqsadida 10-fevraldan 7 kun muddatda tanlovni o‘tkazish va talabgorlar ro‘yxatini shakllantirishda quyidagilar e‘tiborga olinadi:

- Dehqonchilik madaniyatining yuqoriiligi;
- Urug‘lik sholi yetishtirish uchun ajratilgan yer maydoni 10 gektardan kam bo‘lmasligi;
- Ekin maydonlarining yuqori hosildorligi, yer ball beritilgani 60 balddan yuqori ekanligi;
- Fermer xo‘jaligidagi urug‘chilik tajribasiga ega, malakali agronom borligi va urug‘chilik talablariga rioya etish majburiyiligi;
- Yetarli qishloq xo‘jaligi texnikalarining mavjudligi;
- Suv ta‘minotining yetarliligi.

— Fermer xo‘jaligining moliyaviy holati ham hisobga olinadi.

Tender tanlovida ishtirok etish istagini bildirgan fermer xo‘jaliklari rahbarlari joriy yilning 10-fevral kunidan boshlab 17-fevral kuniga qadar tuman hokimligi tomonidan tuzilgan “Tender tanlovi o‘tkazish komissiyasi”ga murojaat etishlari mumkin. Tender tanlovi o‘tkazish to‘g‘risida batafsil ma‘lumotlarni Muzrabot tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limidan olishlari mumkin.

Viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi, “Urug‘chilikni rivojlantirish markazi” DK viloyat boshqarmasi

## ISHGA MARHAMAT!

“Surxondaryo viloyati sog‘liqni saqlash boshqarmasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrda “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga multoqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6110-sonli Farmoni ijrosi yuzasidan talabgor mutaxassislarni viloyatning olis va chekka hududlardagi quyidagi oilaviy poliklinikalarda ishlashga taklif etadi:

Termiz tumanidagi “Gulbahor” QVPda, Uzun tu-

manidagi 76-sonli QOPda, Boysun tumanidagi “Qo‘rg‘oncha”, “Machay” QVP-larida, Muzrabot tumanidagi R.Bo‘riyev nomi QVPda, Oltinsoy tumanidagi “Hovuz” QVP va 54-sonli QOPda, Sherobod tumanidagi “Chorbog‘”, “Xatak” hamda “Navro‘z-G‘urchak” QVPlarida, Qum-qo‘rg‘on tumanidagi “Sayxon” QVP, 38-sonli QOP hamda “Xo‘jamulki” QVPda, Sariosiy tumanidagi “Sangardak” QVPda, Denov tumanidagi “Bobotog‘”, “Ki-yovsuv” QVPlari hamda 19-

sonli QOPda shifokorlarga ehtiyoj borligini hisobga olib, talabgor mutaxassislarni ishga taklif etamiz. Yuqoridagi oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalarga ishga qabul qilingan shifokorlarga kamida 3 yil ishlab berish sharti bilan 30 million so‘m miqdorida bir martalik boshlang‘ich yordam puli, uy-joyi bo‘lmaganlarga esa 3 yil davomida xizmat uy-joylari beriladi yoki bazaviy ishlab beriladigan darajada har oylik pul kompensatsiyasi to‘lab beriladi”.

## VILOYAT SOG‘LIQNI SAQLASH BOSHQARMASI

**Bobur nafaqat buyuk davlat arbobi, mohir sarkarda, shoir, bastakor, mashhur tarixchi olim hamdir.**

## QOMUSIY MEMUAR ASAR

Uning nomi abadiylikka muhrlagan asar — “Boburnoma”. Bu asar memuar, ya‘ni xotira asarlar sirasiga kiradi. Asar 1493-1529-yillar oraliqida bo‘lib o‘tgan tarixiy voqealar, asarda tilga olingan joylar tabiati haqida yilma-yil hikoya qiladi. Unda 30 dan ortiq fanlar haqida ilmiy mulohazalar va Movarounnahr, Afg‘oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, geografiyasi haqida juda qimmatli ma‘lumotlar beradi. Asar personalari 1560 kishidan oshiq bo‘lib, Lev Tolstoyning “Urush va tinchlik” romani personalaridan uch marta ko‘proq.

“Boburnoma”da Husayn Boyqaro, Shayboniyo‘xon, Badiuzzamon, Muzaffar Mirzo, Umarshayx, Sulton Ahmad, Sulton Mahmud kabi o‘nlab taxt egalari, Alisher Navoiy, Muhammad Solih, Kamoliddin Binoiy, Behzod, Mirak Naqqosh, Husayn Udiy singari adabiyot va san‘at arboblari haqida qimmatli ma‘lumotlar, mulohazalar keltirilgan. Bularning hammasi tarix uchun muhimdir. Bobur tabiatan nihoyatda ziyrak va sinchkov, g‘oyat fahmi va idrokli, hamma narsaga qiziquvchan edi. U qayerga bormasin, o‘sha yerning jo‘g‘rofiya o‘rtidan tortib o‘simlik va hayvonot dunyosigacha, ob-havosidan eling tili-yu urf-udumigacha, hamma-hammasi bilan qiziqadi va yozib qoldiradi. Bobur nima haqida, kim haqida yozmasin, g‘oyat samimiydir. O‘zining quvonchini ham, g‘aminini ham hech kimdan yashirmay, ro‘y-rost aytadi. Do‘sti haqida ham, dushmani haqida ham ko‘nglidagini so‘zlaydi. “Boburnoma” o‘zbek adabiyotidagi nasr taraqqiyotiga ham katta ta‘sir ko‘rsatgan.

**Gulnora XO‘JAMQULOVA**

2021-yilgi chaqiruv mavsumi boshlanganligi munosabati bilan 1994-2003-yillarda tug‘ilgan chaqiriluvchilarni tuman va shahar mudofaa ishlari bo‘limlariga murojaat etishlari so‘raladi.

### Surxondaryo viloyati mudofaa ishlari boshqarmasi

07.07.2011-yilda vafot etgan Adinayev Majitdan qolgan mol-mulkka nisbatan meros ishi ochilganligi sababli merosxo‘rlarning meros ulushini olish uchun Termiz tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi Xasanov Shavkat Xasanovich notarial idorasiga yetib kelishlari so‘raladi.

Termiz axborot texnologiyalari va maishiy xizmat ko‘rsatish kolleji tomonidan 2015-yilda Normurodov Aziz Yormaxmad o‘g‘liga berilgan K № 3880465 raqamli diplom va uning ilovasi yo‘qolganligi **MA‘LUM QILINADI.**

Termiz shahar IIB tomonidan 2014-yilda Xaitova Zarxol Abdura-sulovnaga berilgan AA 5268866 raqamli fuqarolik pasporti yo‘qolganligi **MA‘LUM QILINADI.**

Termiz ijtimoiy-iqtisodiy kolleji tomonidan 2016-yilda Sohobova Hilola Nosirjonovnaga berilgan K № 4306004 raqamli diplom va uning ilovasi yo‘qolganligi **MA‘LUM QILINADI.**

13.06.2020-yilda vafot etgan Qilichov Mustafaqul-dan qolgan mol-mulkka nisbatan meros ishi ochilganligi sababli merosxo‘rlarning meros ulushini olish uchun Termiz tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi Xasanov Shavkat Xasanovich notarial idorasiga yetib kelishlari so‘raladi.

19.01.2020-yilda vafot etgan Suvanov Allayordan qolgan mol-mulkka nisbatan meros ishi ochilganligi sababli merosxo‘rlarning meros ulushini olish uchun Termiz tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi Xasanov Shavkat Xasanovich notarial idorasiga yetib kelishlari so‘raladi.

Asatullo Nomozov 1936-yilning 5-fevralida Sariosiy tumanida tavallud topgan. Dehqon oilasida tug‘ilgan Asatullo yetti yoshida otasiz qoldi.



Otasi Xidirov Nomoz II jahon urushida halok bo‘ldi. Ro‘zg‘or onasi Momooy gardanida qoldi. Mushtipar ayolning sa‘y-harakati bilan bir-biridan zukko farzandlar ulg‘aydi. Bolaligi urushning og‘ir va og‘irliq davrida kechgan Asatullo o‘yinqaroq boladan bir lahza mas‘uliyatli odamga aylandi. Endi uning zimmasida ketmon chopish-u o‘roq o‘rish, onasiga ko‘mak bor edi. Asatullo qiyinchilikdan nolimadi, halollikdan erinmadi, mehnatdan qochmadi. Kichik jussasidagi shijoati so‘nmadi. 1944-yildan 1954-yilgacha tumandagi Alisher Navoiy nomli maktabda o‘rta tahsilni oldi. Mehnatda toblangan yigit maktabda a‘lo baholarga o‘qidi. Bir-ikki yil instruktor bo‘lib, ishida ham e‘tirof etildi. 1955-yili Toshkent qishloq xo‘jaligi institutining agronomiya fakultetiga o‘qishga kirdi.

**Usmonali SAMADOV**

## Fidoyi edi...



Agromolik diplomi bilan uyga qaytgan Asatullo avvaliga Sariosiy, keyin Denov va Sho‘rchi tumanlarida turli rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritdi. Bir necha deputat sifatida saylanib elining-da ishonchini oqladi. Davlat mukofotlari, orden va medallar bilan taqdirlangan Asatullo Nomozov umrining so‘ngigacha qadar elim deb yashadi. Xalq manfaatini ustun bilib xizmat qildi.

Har qanday xalq fidoyi o‘g‘lonlari, mutafakkirlari, insoniyat tamadduniga ulkan hissa qo‘shgan olim-u ulamolari bilan g‘ururlanadi.

shohlar orasida Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi”. Bobur Afg‘onistonni egallaganida so‘ng chetdan kirib kelgan bir fohif sifa-tida emas, balki bu yurtga yuksak mehr qo‘ygan, uning shaharlari, qishloq va o‘kalarini obod etish, bog‘-rog‘lar barpo etish, Movarounnahr sivilizat-siyasini joriy etish, mahalliy xalq bilan

## Buyuk yurtning farzandi

murosai-madara ish yuritishni o‘ziga maqsad etdi va bunga erishdi ham. U tomonidan “Bog‘i vafo”, “Bog‘i shahrero”, “Bog‘i Istolib”, “Bog‘i Nur” va “Bog‘i Bobur” kabi bog‘larning yaratilishi, bu yurtga nisbatan yuksak hurmati va ixlos qo‘yganining belgisidir. Hindiston g‘alabasidan ham ko‘zlangan maqsad shunday edi. Boburiylar sulolasi Hindistonni 332 yil boshqardi va ilm-fan, madaniyat, din, san‘at va arxitektura sohalarida ulkan ishlarni amalga oshirdi.

Hindiston davlat arbobi Javoharil Neru Boburga shunday ta‘rif beradi: “Bobur dilbar shaxs; Uyg‘onish davrining bir hukmdori, mard va tadbirkor shaxs bo‘lgan. U san‘atni, adabiyotni sevgan, hayot nafosatidan lazzatlanaga bilgan. Uning nabirasi Akbar yana ham dilbarroq va ko‘p yaxshi fazilatlariga ega bo‘lgan. Boburning Hindistonga kelishi tufayli Hindistonda buyuk o‘zgarishlar sodir bo‘ldi; san‘atda, hayotda, me‘morchi-likda va madaniyatning boshqa sohalarida yangicha serilhom taraqqiyot yuz berdi”.

**DIYORA CHORSHANBIYEVA**, Sho‘rchi tumanidagi 64-umumta‘lim maktabi o‘qituvchisi

## Iqtisodiy sudlar tadbirkorlar huquqi himoyasida

### Sud tizimini isloh qilishda Prezidentimizning “Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni muhim o‘rin egallaydi.

Farmonga ko‘ra, viloyat va unga tenglashtirilgan fuqarolik ishlari bo‘yicha, jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar va iqtisodiy sudlar negizida sudyalarning qat‘iy ixtisoslashuvini saqlab qolgan va sud ishlarini yuritish turilari bo‘yicha alohida sudlov hay‘atlarini tashkil etgan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar umumiyurisdiksiya sudlari tashkil etildi. Shu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy sudyalari qator o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar sudlarining ishlarni kassatsiya instansiyasida ko‘rish bilan bog‘liq vakolatlari bekor qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan ishlar nazorat tartibida ko‘rish instansiyasi tugatildi. Apellyatsiya shikoyatini berish muddati shikoyat qiluvchi shaxslarga hal qiluv qarori qabul qilinganligi ma‘lum bo‘lgan kundand e‘tiboran hisoblanishi belgilandi. Qonunning e‘tiborga molik bo‘lgan jihatlardan yana biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakilga birinchi instansiyasudining hal qiluv qarori ustidan shikoyat berish vakolati berildi. Endilikda tegishli tumanlararo, tuman (shahar) iqtisodiy sudlarining hal qiluv qarorlari (ajrimlari) ustidan berilgan apellyatsiya shikoyati Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining iqtisodiy ishlari bo‘yicha sudlov hay‘ati tomonidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarining hal qiluv qarorlari (ajrimlari) ustidan berilgan apellyatsiya shikoyati esa O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining Iqtisodiy ishlari bo‘yicha sudlov hay‘ati tomonidan ko‘rib chiqiladi. Bu harakatlarning barchasi, odil sudlov darajasini xalqaro talablar bilan uyg‘unlashtirib, demokratik huquqiy davlat qurish hamda adolati fuqarolik jamiyatining barpo etilishiga xizmat qiladi.

**Z. TOJIYEV**, viloyat iqtisodiy sudlari shug‘lisi, **T. MUZRAPOV**, sudya kaatga yordamchisi

# Obzo'ning onasi – mehnat, otasi – sa'y-harakat



qismga ajratilgan. Ulardan birida boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qishadi. Har pog'onasiga karra jadvali yozilgan zinatlardan tortib devorlar ham o'quvchi va o'qituvchilarning o'zlari qamish qalamchalari-yu eski charm bo'laklaridan yaratgan kichik san'at asarlari, turli ko'rgazmali qurollar bilan bezatilgan.

— Boshlang'ich sinflarda 664 nafar o'quvchi tahsil oladi, — deydi boshlang'ich sinflarda o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Sobir Qurbonov. — Bu yerda shanba kunlari o'quvchilar uchun beshta muhim tashabbus doirasida rassomchilik, raqs, kompyuter savodxonligi, tikuvchilik, taekvando kabi to'garaklarimiz muntazam ravishda ishlab turibdi. Ularda o'quvchilarimiz o'zlari qiziqqan yo'nalish bo'yicha ishtirok etishadi.

— Bugun bolalarimiz zamonaviy telefon-u kompyuterlarni ko'rib ulg'ayishmoqda, — deydi informatika o'qituvchisi Ulug'bek Mamatminov. — Ammo, ularga zamonaviy texnologiyalaridan to'g'ri foydalanishni o'rgatishimiz lozim. Men boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun kompyuter savodxonligidan to'garak mashg'ulotlarini olib borakichik pyesalar ham sahnalashtiriladi.

Qishloq bolalari teatrni faqat televizor-da emas, balki jonajon maktabida ham ko'rishi, unda o'zlarining opa-akalari tomonidan liq bo'lsa, uni to'ldirish bo'yicha tajribalar o'rtoqlashiladi.

— Tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlashda bitta bolaga ikkita dan o'qituvchi biriktirilgan holda yondashilmoq-nazorat ostida bo'ladi. Maktabda tashkil etilgan sportning shaxmat-shaxka, voleybol, armrestling, milliy kurash, yengil atletika, gimnastika turlari bo'yicha to'garaklar doim gavjuna. Yutuqlar ham shunga yarasha.

— Yaqinda voleybol bo'yicha maktab jamoasi viloyatda faxrli 3-o'rinni, “Quvnoq startlar” sport musobaqalarida esa birinchi o'rinni egallab qaytishdi, — deydi jismoniy tarbiya o'qituvchisi, xalq ta'limi a'lochisi Shoira Turopova. — Shuningdek, milliy kurash bo'yicha Abdulxoliq Boyqobilovning shogirdlari viloyatda birinchi, respublikada esa ikkinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

Seminar doirasida sinflarda barcha fanlar bo'yicha ochiq darslar ham tashkil qilindi. So'ng, ishtirokchilar, tumanning xalq ta'limi bo'limi uslubchilari bilan birgalikda tahlil qilindi, ijobiy xulosalar aytiladi.

Albatta, ta'lim jarayonining sifatli o'tishi, o'qituvchidan tortib oddiy xodimgacha o'z vazifasiga mas'uliyat bilan yondashishi bu



man. Hozirda 4-sinf o'quvchilari kompyuterining umumiy funksiyalarini bajarishdan stahqari, “Word” dasturida bemalol ishlashmoqda.

Binoda 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash uchun ham alohida xona ajratilgan. U yerda 60 nafar bola ilk savodxonlik saboqlarini o'qitilmoqda. Yana bolalar uchun tashkil qilingan qo'g'irchoq teatri esa maktabdagi o'quvchilar tez-tez qo'yilgan pyesalarni tomosha qilishi bu ibrat maktabning kichik namunasi.

Ta'lim maskanida olib boriladigan darslar maktab direktori hamda o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan muntazam ravishda tahlil qilib boriladi. Tahlillar, olinadigan yozma ish namunalar esa monitoring qilinib, har ikki haftada pedagogik kengashda muhokama qilinadi. Qayerda bo'shda, — deydi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Abulqosim Ortiqov. — Ayni paytda tarbiyasi og'ir bo'lgan 5 ta o'quvchi bilan shu tartibda ish olib borayapmiz. Eng yaxshi yo'l — bu bolani bo'sh qo'ymaslik. Shu bois, biz ham ularni, dastlab, to'garaklarga jalb qildik. To'garakda ular biriktirilgan fan o'qituvchilari o'quvchi bilan individual tarzda shug'ullanadi va xulq-atvori doimiy ravishda

shu dargohga rahbarlik qilayotgan kishining qat'iyati, to'g'ri va adolatli ish prinsipi va bog'liqdir. Aksar maktablarda ayni shu omilkorlik yetishmasligi natijasida maktab jamoasidagi nosog'lom muhit, uning ta'sirida o'ldajo'lda qolgan darslar, bolalar, abgor holga kelgan sinfxonalarni ko'rib, achinganmiz.

Ammo, 27-maktabdagi holat buning mutlaqo aksini ekaniga guvoh bo'lib, biz ham quvondik. Negaki, bu dargohda fidoyi rahbarlarni, ko'zi yonib turgan yosh xodimlari ahlil jamoani ko'rdik. Axir, ahilikda gap ko'p deb, bejiz aytishmagan-da.

Feruz RAHMONQULOVA

2023-YILGA QOLDIRILDI

Aholini ro'yxatga olish jarayoni

2023-yilga qoldirildi Prezident farmo-niga muvofiq, Respublikamizda aholini ro'yxatga olish 2022-yil noyabr oyida o'tkazilishi belgilangan edi. Aholini ro'yxatga olish tadbiri keng ko'lamlil, ko'p vaqt va katta mablag' talab etadigan tadbir bo'lib, uni o'tkazish uchun 2-3 yil davomida tayyorgarlik ishlari olib borish kerak. Shu sababli, tadbirga puxta tayyorgarlik ko'rish va uni sifatli o'tkazish maqsadida, Vazirlar Mahkamasining yangi qarori bilan aholini ro'yxatga olish tadbiri kechiktirildi.

Termiz shahar statistika bo'limi



**Mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalarining asosiy qismi shu paytgacha markaziy shaharlar va Farg'ona vodiysida joylashgandi. Bugun Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo va Jizzax viloyatlarida ham OTMLar soni ancha ko'paydi. Jumladan, Denov tumanida ham tadbirkorlik va pedagogika instituti faoliyatini boshladi. 2020/2021 o'quv yilidan talabalarni o'z bag'riga chorlagan oliyogoh rektori, filologiya fanlari doktri G'anisher Rahimov bilan suhbatimiz navbiron ilm dargohida amalga oshirilayotgan ishlar xususida bo'ldi.**

Usmonali NORMATOV suhbatlashdi

## Yangi institut odimlazi

talabalarni maqolalari chop etiladi, shuningdek, ilmiy yangiliklar jamoatchilikka yetkaziladi.

**— Kelgusi rejarlar va niyatlar haqida ham aytib o'tsangiz...**

— Mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirish, uni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahmiyat berilmoqda. Bu bejiz emas. Chunki, dunyoning rivojlangan davlatlarining deyarli barchasi o'zgarishlarga moslasha oladigan va raqobatga bardosh beradigan yetuk mutaxassislarni tayyorlash ta'lim tizimiga ega. Oliyoghimizda ham zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan kadrlar tayyorlashga barcha imkoniyatlar safarbar etilayapti. 2-3-4-kurs bakalavriat yo'nalishlarida 459 ta o'quv fanining elektron o'quv resurslari Moodle platformasiga joylashtirilgan. 2020/2021 o'quv yilida dars jarayonlari sifatli tashkil etish maqsadida 234 ta videodars, 655 ta taqdimot, 35 678 ta elektron o'quv adabiyoti, 697 ta ma'ruza matni va glossariylar, oraliq nazorat savollari, test savollari hisobiga platforma to'ldirib berilmoqda.

2020/2021 o'quv yilida xorijiy mamlakatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda turfa loyihalarni amalga oshirish, ta'lim jarayonini takomillashtirish evaziga sifatini yaxshilash borasida xorijiy mamlakatlarning oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari, xalqaro tashkilot hamda jamg'armalar bilan aloqani mustahkamlash va ilg'or xorijiy ta'lim tajribalarini o'zimizda tadbiq etish uchun hamkorlikni yanada kuchaytirish choralarini ko'rayapmiz. Jumladan, Rossiyadagi bir qator oliy ta'lim muassasalari bilan qo'shma ta'lim dasturlari tayyorlash, “qo'shma diplom”, akademik mobillik hamda yozgi maktablar bo'yicha integrallashgan innovatsion ta'lim dasturlarini yo'lga qo'yish, Tojikiston texnika universiteti, Tojikiston moliya-iqtisodiyot universiteti, Tojikiston pedagogika universiteti, Tojikiston milliy universiteti bilan stajyor o'qituvchi, talaba almashuvi bo'yicha kelishuv olib borilmoqda. Qisqasi, bu borada belgilangan rejaralarni juda ko'p. Bugungi kunda oliyogoh va tadbirkorlik o'qituvchilari tomonidan viloyat xalq ta'limi boshqarmasi bilan hamkorlikda Denov, Sariosiyo, Uzun, Sho'rchi, Qumqo'rg'on tumanlaridagi umumta'lim maktablarining xorijiy tillar va aniq fanlar o'qituvchilariga ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatilayapti. Ta'lim dargohimizda besh tashabbus loyihasi asosida “Besh tashabbus markazi” tashkil etilgan. Ayniqsa, kitobxonlik alohida e'tibor berilayapti. Institut ARM fondida 33 788 ta o'quv adabiyotlar, 6 682 o'quv fanlariga oid darslik, ko'plab qo'llanma va badiiy adabiyotlar mavjud bo'lib, bu adabiyot va darsliklar keng bilimga ega bo'lgan va mantiqiy fikrlay oladigan yoshlarni tarbiyalashga xizmat qilayapti.

jalashtirilgan. Bundan tashqari, mavjud o'quv binolarini ta'mirlash va zarur jihozlarni ta'minlash choralari ko'rilayapti.

**— Oliyogoh bazasida texnikum tashkil qilish va kollejlarini o'taliqqa olish ham ko'zlanganmi?**

— Hududda ta'lim uzluksizligiga erishish uchun ta'lim klasterini tashkil etish maqsadida 2021/2022 o'quv yilidan institut qoshida alohida litsey hamda axborot texnologiyalariga ixtisoslashgan texnikum tashkil etishni rejalashtirganmiz. Litseyga Sariosiyo, Denov, Uzun, Oltinsoy, Sho'rchi, Boysun tumanlaridagi maktablarning iqtidorli o'quvchilari o'qitiladi va a'lo baholarga tugatganlari Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti va boshqa OTMLariga imtiyozli ravishda qabul qilinadi. Bo'lajak litsey uchun sobiq Sariosiyo agrosanoat kolleji binosi operativ boshqarish huquqi bilan institut balansiga o'tkazildi. Shuningdek, oliyoghimiz balansida turgan sobiq Sho'rchi qishloq xo'jaligi kolleji bazasida zamonaviy axborot texnologiyalari texnikumi ochiladi.

Hozirda bu masalada qaror loyihasi ko'rib chiqilmoqda.

**— Institut yangi, talabalarga saboq beradigan ustozlar, ilmiy darajali o'qituvchilar yetarli, deb hisoblaysizmi?**

— Ilm dargohimizga respublikaning turli oliy ta'lim muassasalarida mehnat qilib turgan va amaliy tajribaga ega bo'lgan 5 nafar fan doktri, 24 nafar fan nomzodi hamda mahoratli o'qituvchilar tanlov asosida ishga qabul qilingan va ular bugungi kunda talabalariga fidoyilik bilan ilm berishayapti. Malakali professor-o'qituvchilar, olimlar ko'payishi uchun institutdan 29 nafar yosh maqsadli magistratura qabul qilindi. Prezidentimizning 2020-yil 17-apreldagi qarorining 9-bandida Oliy va o'rta maxsus ta'lim, iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish hamda Innovatsion rivojlanish vazirliklariga oliyoghimizni salohiyatli professor-o'qituvchilar bilan ta'minlash uchun shu yildan boshlab yetakchi oliy ta'lim muassasalarida yetishli sohalar bo'yicha tayanch doktoranturada kadrlarni maqsadli tayyorlash chorasini ko'rish yuklatilgan. Institutimizdan

2020/2021 o'quv yilida 3 nafar stajyor tadqiqotchi, 6 nafar yosh mutaxassis maqsadli doktoranturada ilmiy ishlarni davom ettirishayapti. 2023-yilgacha mamlakatda matematika fanlari bo'yicha ta'lim sifatini yaxshilash, ilmiy tadqiqotlar natijadorligi va amaliy ahmiyatini oshirishning maqsadli dasturi ijrosini bajarish maqsadida matematika bo'yicha doktoranturada o'qishni rejalashtirayotgan 3 nafar nomzod ilmiy tadqiqotlar va innovatsion faoliyatni rivojlantirish boshqarmasiga taqdim etildi.

Mamlakatimizning boshqa OTMLaridan ishga taklif qilingan tajribali ustozlarga qulay ish va yashash sharoiti yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Viloyat hokimining amaliy yordami bilan Denov shahrida qurilgan yangi uylardan biri ustozlarimizga ajratildi. Institutimizda respublika miqyosidagi “Tadbirkorlik va pedagogika” nomli ilmiy-uslubiy jurnal tashkil etdik. Ilk soni chop etilib, ikkinchi son uchun maqolalar yig'ilayapti. Ushbu nashrdagi barcha yo'nalishlar bo'yicha olimlar, ilmiy izlanayotgan doktorant hamda mustaqil izlanuvchilar, magistrant va

talabalar maqolalari chop etiladi, shuningdek, ilmiy yangiliklar jamoatchilikka yetkaziladi.

**— Kelgusi rejarlar va niyatlar haqida ham aytib o'tsangiz...**

— Mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirish, uni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahmiyat berilmoqda. Bu bejiz emas. Chunki, dunyoning rivojlangan davlatlarining deyarli barchasi o'zgarishlarga moslasha oladigan va raqobatga bardosh beradigan yetuk mutaxassislarni tayyorlash ta'lim tizimiga ega. Oliyoghimizda ham zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan kadrlar tayyorlashga barcha imkoniyatlar safarbar etilayapti. 2-3-4-kurs bakalavriat yo'nalishlarida 459 ta o'quv fanining elektron o'quv resurslari Moodle platformasiga joylashtirilgan. 2020/2021 o'quv yilida dars jarayonlari sifatli tashkil etish maqsadida 234 ta videodars, 655 ta taqdimot, 35 678 ta elektron o'quv adabiyoti, 697 ta ma'ruza matni va glossariylar, oraliq nazorat savollari, test savollari hisobiga platforma to'ldirib berilmoqda.

2020/2021 o'quv yilida xorijiy

**“Surxon tongi” va “Заря Сурхана”** gazetalarini tahririyati

Gazeta 2017 yil 3 fevralda viloyat Matbuot va axborot boshqarmasida 11-001-raqam bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farqlanishi mumkin.

**MANZILIMIZ:** Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 30-uy

**TELEFONLAR:** Kotibiyat: 76 223-35-56, 76 223-35-61; Reklama va marketing bo'limi: 76 223-35-98, 76 223-35-45; Qabulxonasi: 76 223-35-26

**MUASSISLAR:** Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi va viloyat hokimligi

**BOSH MUHARRIR:** SALOHIDDIN NORQOBILOV

**KOTIBIYAT:** MAS'UL MUHARRIR: X. KARSHIYEV; MUSAHHIH: Sayyora ALLAYEVA; NAVBATCHI MUHARRIR: A. MO'MINOVA; SAHIFALOVCHI-DIZAYNER: M. MIRZAYEVA

**“Surxon tongi” va “Заря Сурхана” gazetalarini tahririyati bosmaxonasida chop etildi.**

**BOSMAXONA MANZILI:** Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 21-A uy

Qo'g'oz bichimi A-2. Nashr indeksi: 6 500; Bosishga topshirildi — 09:00; Bosildi — 11:00; Adadi 18 550 nusxa. Buyurtma G.